Jahon ta'lim tizimi tashkilotlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasini va mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari, shuningdek, talabalarda kasbiy intellektual-kognitiv faoliyatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar muntazam amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish metodikasini ta'lim jarayonida talabalarda kasbiy bilim hamda ko'nikmalarni, innovatsion salohiyat hamda kasbiy rivojlanishni,



ta'limda pedagogik hamkorlik tamoyillarini modellashtirish, o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim bosqichlarida, xususan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, kreativlikni baholash mezonlari va parametrlarini aniqlashtirishning prognostik modellarini tatbiq etishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilishiga e'tibor qaratilmoqda. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlil ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Jumladan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son¹ Qonuni^[1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son² Farmoni^[2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son³ Farmoni^[4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son⁴ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish to'g'risida"gi PF-5847-son⁵ Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish N.E. Berdikulova, N.A. Abduraxmonova, A.P. Baltamuratova, B. Yo'ldoshev, D.M. Elmuratova, A.R. Hamroyev, H.X. Hamzayev, O.Q. Haydarova, M.M. Kuranova, U. Masharipova, N.A. Normurodova, Sh.U. Nurullayeva tomonidan o'rganilgan. Ta'limning mobillashuvi sharoitida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish tadqiqotchi Z.T. Raximov tomonidan, talabalarda bilish qobiliyatini o'stirish, malakali mutaxassislarini tayyorlash masalalari esa D.N. Arziqulova, D. Yo'ldosheva, M. Ochilov, G.N. Ibragimovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish A.L. Andreyev, V.I. Baydenko, A.S. Belkin, A.N. Daxin tomonidan, talabalarning mustaqil bilim faoliyatini tashkil qilish Ye.A. Yevseyeva, B.D. Yelkokin, B.P. Yesipov tomonidan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarida kasbiy kompetentligini rivojlantirish I.A. Zimnaya, I.V. Krugolva, N.N. Lobanovalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Oliy ta'lim muassasalarida axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi boshqarish, ilmiy tafakkurni kengaytirish, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik bilan bir qatorda ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va bu bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Jumladan, ular fanni o'rgatib, amaliyotga tatbiq qilishda kreativ yondashilgan ta'limning mazmuni va mohiyatini bilishi asosli. Shuningdek, bugungi kunda zamonaviy ta'limning asosiy muammolaridan biri bo'lajak o'qituvchilarga ularning ijodiy va shaxsiy rivojlanishida ijodiy, xolisona va ijodiy yordam berish hamda ijodiy fikrlovchilarni kasbiy mehnatga tayyorlash hisoblanadi.

"Kompetentlik" tushunchasi "Ta'limning umumiy mazmunini modernizatsiya qilish strategiyasi"ga ko'ra, quyidagilarni o'z ichiga oladi deb xulosa qilingan: xulq-atvor, texnologik, erorastion, kognitiv, motivatsion, ijtimoiy va axloqiy komponentlar, ta'lim natijalari va boshqalar. Shu bilan birga, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy manbalar va materiallarda "kompetentlik" tushunchasining umumiy qabul qilingan aniq ta'rifi mavjud emasligi ma'lum. Bundan tashqari, pedagogika nazariyasi va amaliyotida, shuningdek, bu bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda talabalarning "kompetensiyalari"ni izohlash bilan bog'liq masalalar hali ham faol muhokama qilinmoqda.

Boshlang'ich ta'limda kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik muammo sifatida qaralmoqda, ta'lim jarayonining asosiy subyekti bo'lmish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ijodiy salohiyatini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ko'rilishi ushbu jarayonning murakkab va ko'p qirraliligidir. Kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z faoliyatini yangicha yondashuvlar bilan tashkil etish qobiliyatiga

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-5841063>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4749364>

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

asoslangan. Ta'lim jarayonining yangi talablarga mos ravishda o'qituvchilarning o'z pedagogik metodlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. O'qituvchi o'z darslarini faqat standart rejada emas, balki ijodiy shaklda tashkil etishga undovchi strategiyalarga ega bo'lishi, kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida o'qituvchilarning faqat o'z darslarini tashkil qilishida emas, balki bolalar bilan ishlashda ham kasbiy yondashuvlarni qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ta'limning individuallashtirilgan shakllarini joriy etish hamda bolaning o'ziga xos qobiliyatlarini ochishga qaratilgan bo'lishi zarur. Mualliflik yondashuvi sifatida ushbu muammoni hal qilishda milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish zarur. Mahalliy pedagogik muhitga mos keluvchi didaktik vositalarni ishlab chiqish va ularni ta'lim tizimiga tatbiq etish kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z pedagogik tajribalarini boyitish va o'zini rivojlantirish uchun doimiy refleksiya jarayonini joriy qilish tavsiya etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb pedagogik muammo hal qilish uchun tizimli yondashuv, zamonaviy metodlarni joriy etish hamda innovatsion didaktik materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, ma'lumotlar asosan kuzatish, suhbat, pedagogik diagnostika, anketa va test sinovlari orqali yig'ildi. O'quv mashg'ulotlari jarayonidagi pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini namoyon etuvchi amaliy topshiriqlarni baholash ham asosiy manbalardan biri bo'ldi. Olingan ma'lumotlar mazmuniy tahlil, pedagogik-psixologik tahlil, statistik guruhlash, solishtirish va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, kasbiy kompetentligini shakllantiruvchi omillar, mavjud muammolar hamda rivojlanish dinamikasi aniqlab berildi. Shuningdek, tajriba-sinov mashg'ulotlari natijalari qiyosiy tahlil qilinib, qo'llangan metodik yondashuvlarning samaradorligi aniqlangan ilmiy xulosalar bilan mustahkamlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limda kasbiy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb pedagogik muammolaridan biri sifatida ajralib turadi. O'qituvchilarning o'z faoliyatini innovatsion va ijodiy shaklda tashkil etishga tayyorligini oshirish zarurati bilan izohlanadi. Kasbiy kompetentlik o'qituvchilarning muammolarni hal qilish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Ushbu masala ilmiy asoslangan tahlil hamda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy pedagogik muammosi o'qituvchilarning o'z faoliyatini yangilash va modernizatsiya qilish ehtiyojidir. Ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish masalasida olib borilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki, ijodiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida milliy pedagogik qadriyatlarni hisobga olish muhimdir.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida quyidagi asosiy pedagogik muammolar aniqlandi:

1. **Nazariy va amaliy farqlar** – ya'ni o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida nazariy bilimlarning amaliy faoliyatda yetarli darajada qo'llanilmasligi. Bu holat kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga to'sq bo'lib xizmat qiladi.
2. **Pedagogik yondashuvlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi.** Ta'lim tizimida kasbiy yondashuvlarni rag'batlantiruvchi texnologiyalar va metodlar yetarli darajada joriy qilinmagan.
3. **Innovatsion resurslarning cheklanganligi.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi ularning ijodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar tayyorgarligini quyidagi yo'nalishlarda shakllantirish lozim:

1. **Tizimli yondashuv** – kasbiy kompetentligining barcha tarkibiy qismlarini bir tizim sifatida ko'rib chiqish.
2. **Muammoli ta'lim texnologiyalari** – muammoli vaziyatlar asosida o'qitish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
3. **Fanlararo integratsiya** – ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlikni ta'minlash orqali ijodiy yondashuvni shakllantirish.



1-jadval: Ijodiy kompetentligini rivojlantirishda asosiy yondashuvlar

Yondashuv turi	Tavsif	Natijalar
Tizimli yondashuv	Bilim, ko'nikma va tajribani yagona tizim sifatida shakllantirish.	O'qituvchilarning kasbiy mahorati oshadi.
Muammoli ta'lim texnologiyalari	Muammoli vaziyatlar asosida darslarni tashkil qilish.	Mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish rivojlanadi.
Fanlararo integratsiya	Turli fanlarni bir mavzu atrofida birlashtirish.	Ta'lim mazmunining yaxlitligi ta'minlanadi.

Kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish tavsiya etiladi:

- Bilimlarni shakllantirish** – kasbiy kompetentligining nazariy asoslarini o'rgatish.
- Amaliy faoliyatni shakllantirish** – o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga yo'naltiruvchi dars shakllarini ishlab chiqish.
- Refleksiya bosqichi** – o'z faoliyatini baholash va takomillashtirish yo'llarini aniqlash.

O'zbekiston ta'lim tizimida ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun milliy pedagogik qadriyatlarni hisobga olish zarur. Mahalliy o'quv materiallari va didaktik vositalar orqali o'qituvchilarni o'z madaniyati va tarixiga asoslangan holda ijodiy yondashuvga jalb qilish mumkin. Shuningdek, milliy ertaklar, xalq og'zaki ijodi va san'at namunalarini dars jarayonida qo'llash ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida boshlang'ich ta'lim jarayonining muhim qismidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar va milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim tizimiga joriy qilish lozim. Shuningdek, bu jarayonni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish asosida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish zarur.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun quyidagi nazariy qoidalar asos bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini ijodiy yo'l bilan rivojlantirish samaradorligining psixologik omillari quyidagilardan iborat: topshiriqlarning to'g'riligi, ularning yuqori motivatsiyaliligi, kognitiv funksiyalar, to'g'ri aqliy fikrlash va kuch.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlikni rivojlantirish uchun metodikalardan foydalanish samaradorligi bir qator talablarni bajarishga bog'liq. Ta'lim dasturlari ijodiy boshqaruvning samarali va tegishli maqsadlarni ta'minlashi kerak. Muammoli vaziyatlardan foydalanish optimal aqliy faoliyat uchun zarur texnika hisoblanadi.

Tafakkurning ijodiy tomonini rivojlantirish kelajakdagi o'qituvchining ijodiy rivojlanish samaradorligi ko'rsatkichidir. Muammoning tavsifi (muammoli vaziyatni amalga oshirish), tegishli ma'lumotlarni tanlash uchun o'z mezonlaringizni ishlab chiqish va yechimlarni topish uchun zarur bo'lgan g'oyalarni ishlab chiqish – ijodiy tafakkur rivoji uchun muhim hisoblanadi. Ushbu fikrlarni aniqlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, boshqa fikrni ishlab chiqish, aqliy jarayonlarni mashq qilish; buyurtma berish, masshtablash, solishtirish va yaratish kabi ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish zarur.

Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'li – o'z-o'zini anglash, fikrlash, o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi boshqarish kabi sohalarda o'z-o'zini anglashning mustaqilligidan iborat.

Bo'lajak boshlang'ich maktab o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi namoyon qilishi insonning erkinlikka bo'lgan intilishi va erkin odamlar bilan muloqot qilish orqali o'zini-o'zi anglash zarurligini aks ettiradi. O'quv jarayoni haqida batafsil ma'lumotni tashkil qilish turli lavozimlarni to'ldirish va oshirishda samarali bo'ladi. Loyihaning tashqi va ichki dunyosida yangi tajribalar yaratishda ijtimoiy muhit va o'zgarishlar muhim ahamiyatga ega.

Ijodiy o'z-o'zini ifoda etish kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining oddiy ishdan mukammal ishga o'tish, ichdan tashqariga chiqish va mehnat xatti-harakatini bilish qobiliyatini namoyish etadi. Ijodiy o'z-o'zini namoyon qilish – bu boshqalar uchun o'zini ko'rsatish emas, balki kelajakdagi o'qituvchining o'sishi, uning shaxsiy bilim, tushunish va faoliyat qobiliyatidir. U o'z ishini va o'zini rivojlantirishni o'zgartirib, o'zining "men" ini ifodalovchi shaxsga aylanishi mumkin.

O'quv dasturi fan va amaliyotning "rivoji" deb ataladi, o'quv materiallari esa ilmiy va texnik bilimlarni qayta ishlash hisoblanadi. Amaliy ta'lim dasturlari o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatda, mehnatda va boshqa turdagi faoliyatlarda muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bilim, ko'nikma, malaka, intellektual va amaliy faoliyatning umumiy usullarini yaratishga qaratilgan maqsadga ega. Ushbu ta'lim modelidan foydalanish turli kasbiy ishlarda kasbiy va maxsus ko'nikmalarni o'rganish uchun juda foydali.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z-o'zini rivojlantirish metodlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi: dastlab shaxsiy ustuvorliklar va o'quvchilarning o'zini-o'zi qadrlashi kasbiy faoliyatga tegishli deb hisoblanadi. Dasturda odamlarning ma'naviy rivojlanishi va ijodiy tabiatiga e'tibor qaratilgan.

Asosiy vazifalar: talabalar dunyodagi ijodiy o'zgarishlarning gumanitar fanlarini va "inson–muhit" tizimidagi munosabatlarning integratsiyalashuvini tushuna oladilar; ijodkorlikni saqlash va rivojlantirish. Ta'lim modelidagi yangi toifalar asosiy ko'nikmalar, asosiy malakalar va asosiy faoliyat usullaridir. Ularni amalga oshirish ta'lim majmualariga yo'naltirilgan ushbu sifat komponentlari bilan ta'lim standartlarining yangi mazmunini talab qiladi. Zamonaviy sharoitda kasbiy mahoratni ijodiy yo'l bilan rivojlantirishning tabiati va xususiyatlari ularni qo'llashning asosiy maqsadlarini belgilaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy shaxsini o'qitishni loyihalash, metodlarni aniqlash, o'qitishni boshqarish, mazmuni va texnologiyasi tizimini qurish dasturi sifatida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim maqsadlarining ifodasi o'quvchilarning kreativ fikrlash va kasbiy qobiliyatlarini yaratish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z-o'zini o'rganish, o'zini-o'zi boshqarish va o'zini-o'zi nazorat qilishdan iborat.

Ta'lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual psixologik xususiyatlari va o'z-o'zini yangilashga bo'lgan ehtiyojini hisobga oladi. Ijodiy ta'limga yo'naltirilgan tayyorgarlik darajasi ta'lim dasturlari va pedagogik texnikani joriy etish zaruratiga asoslanadi, shuningdek, bo'lajak o'qituvchining ijodiy shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy ta'lim darajalari insonga yo'naltirilgan dasturlar va o'rganish usullari orqali ijtimoiy madaniyatga mos keladi. Darhaqiqat, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy mahoratini kreativ yo'l bilan shakllantirishning eng muhim yo'li ijodiy jarayon va natijalarga asoslangan kreativ ta'lim hisoblanadi.

Kasbiy ta'limda o'zaro ta'sir darajasi muhim ahamiyatga ega.

- *Birinchi* – tinglovchilar bilan o'zaro munosabatlarning dastlabki darajasi bo'lib, fikr-mulohazalarga yordam berib, o'qituvchi natijalarga ko'ra hamkorlikni tuzatadi.
- *Ikkinchi* – sinf faoliyatini optimallashtirish darajasi. Bu rejalashtirish, ongli tanlovlar va o'qituvchilarga tanish bo'lgan o'qitish mavzulari, usullari va formatlarining to'g'ri aralashmasidan boshlanadi.
- *Uchinchi* – evristik daraja bo'lib, bu tomoshabinlar bilan "jonli" muloqot qilish uchun ijodiy usullardan foydalanish imkonini beradi. To'rtinchi – o'qituvchilarning autonomiyasi.

Kasbiy va konstruktiv usullarda dars beradigan, insonparvar va ijodiy yo'llar bilan ishlaydigan o'qituvchilar mustaqil va mazmunli o'rganish uchun eng yaxshi amaliyotlarni taqdim etadilar. Talabalar va ijodiy ta'lim dasturlari ularning akademik va kreativ guruhlari qiziqishini rag'batlantiradi. Ichki hamkorlik jarayonlarini namoyish qilishni qo'llab-quvvatlaydi hamda talabalarni innovatsion va ijodiy o'quv materiallari bilan ta'minlaydi.

Kasbiy va ijodiy ta'limning asosiy texnologik usullari quyidagilardan iborat:

- o'qishga bo'lgan muhabbat;
- talabani o'z-o'zini o'zgartirish va ijodiy rivojlanishga qodir shaxs sifatida so'zsiz hurmat qilish va ijobiy qabul qilish;
- ijodiy faoliyatga asoslangan ta'lim fikrlash;
- o'qituvchilarning ijodiy ta'limga samimiy yordami, e'tibori, qo'llab-quvvatlashi va ma'qullashi;
- axborotni boshqarish texnologiyasidan foydalanish.

Jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy-ijtimoiy rivojlanishining eng muhim usuli bu ijodiy yo'l bilan ta'lim berish bo'lib, uning asosiy maqsadi ijodkor shaxslarni yetishtirish hisoblanadi. O'qituvchi faoliyatining eng muhim bo'g'ini ijodiy muloqot hisoblanadi. Bilimlarni ijodiy yo'l bilan rivojlantirish uchun o'qituvchilar o'zlarining ijodiy kompetensiyalarini, malakalarini va raqobatbardoshligini doimiy ravishda oshirib borishlari kerak.

Tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar orasida "kasbiy kompetensiya – bu o'zining pedagogik faoliyatini yetarli darajada yuqori ko'rsatkichda amalga oshiradigan, talabalarga ta'lim va tarbiya berishda barqaror yuqori natijalarga erisha oladigan, yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda hal eta oladigan va o'z faoliyati natijalarini baholaydigan o'qituvchi" degan ta'rif ham mavjud.

Zamonaviy jamiyat talaba va o'ziga nisbatan shaxsiy va insonparvarlik pozitsiyasini egallashga qodir, talaba shaxsini rivojlantirishni asosiy maqsad qilgan, ijodkorlik qobiliyatiga ega, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalashga intiladigan o'qituvchilarga muhtoj hisoblanadi. Shu sababli pedagog-o'qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasini oshirish muammosi bugungi kunga qadar ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida ularning ijodiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurligini taqozo etadi. Talabalar ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish, psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash va ularda ijodiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni asoslash muhim ahamiyatga ega. Amalga oshirilayotgan pedagogik



faoliyat turlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-ijodiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasini ma'lum bir tizim sifatida, bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab kompetentliklarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Misol uchun: o'quv-uslubiy, tashkiliy, ilmiy-tadqiqot, AKT kompetensiyasi, o'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyasi va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish joizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun tizimli yondashuv, zamonaviy metodlarni joriy etish va innovatsion didaktik materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida kompleks yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy metodlarni joriy etish, ta'lim mazmunini boyitish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari, tamoyillari va bosqichlarini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning muhim omillaridan biridir. Bu esa nafaqat o'qituvchilarning ijodkorligini oshiradi, balki o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF–60-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF–4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017-yil, 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF–5847-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF–6097-son Farmoni.
6. Abduraxmonova N.A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. *Educational Research in Universal Sciences*, 2023.
7. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyatini tashkil etish. *ORIENS*, 2023.
8. Berdieva M.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning metodik asoslari. *Dissertatsiya*. TDPU. – T.: 2025-yil.
9. Berdikulova N.E. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion va integratsion texnologiyalarni takomillashtirish. *Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. Samarqand davlat universiteti, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.